



**IIV AKADEMIK LITSEYLARIDA O'QUVCHI YOSHLAR  
HUQUQIY BILIMLARINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS  
JIHATLARI**

***Karimov Islom Umidullo o'g'li***  
*IIV Surxondaryo akademik litseyi*  
*Huquqshunoslik fanlari o'qituvchisi*  
**+998937621702**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada IIV akademik litseylarida o'quvchi yoshlar huquqiy bilimlarini yuksaltirishning o'ziga xos jihatlari atroflicha toxtalib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Akademik litsey, O'quvchi yoshlar, huquq, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, "Yoshlarga oid davlat siyosati", qonun, farmon, qaror.*

Ma'lumki, yoshlar tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ayniqsa XXI asrda bu masala mamlakatimizda hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda jamiyatimizda barcha sohalarni modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari yangi bosqichda olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib qaraganda, IIV akademik litseylarida o'quvchi yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishda huquqiy fanlarning o'rni tobora ortib bormoqda. Yoshlar o'rtasida jinoyat sodir etish, diniy ekstremistik oqimlarga, terrorchi guruhlariga qo'shilib qolish holatlar ko'payib borayotganligi kuzatilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining rivoji o'sib kelayotgan avlodning ta'lim darajasi huquqiy savodxonligining yuqoriligiga bog'liqdir. Yaxshi ta'lim – tarbiya olgan barkamol avlod hech qanday huquqbuzarlikning ko'chasiga kirmaydi, uning botqog'iga bormaydi.

Yoshlarning huquqiy ta'limi ularning bilim va tajribasini shakllantirishga katta xizmat qilib, ijtimoiy jamiyatda qonun buzilish holatlari, zo'ravonlik va nizolarning oldini olishda muhim o'rin tutadi.



Yuksak huquqiy madaniyatga asoslangan demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan prinsiplari mavjud. Bular erkinlik, xalqlar va millatlarning o'zaro do'stligi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi va amalga oshirishi, jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi va boshqalardan iborat.

O'zbekistonda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar demokratik huquqiy davlat, erkin va farovon fuqarolik jamiyati tuzishga qaratilgan. Ushbu sa'y-harakatlar har bir yoshning to'la ma'noda ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi kerakligini talab etadi.

Mazkur doiralardagi keng o'zgarishlarning mazmun mohiyatini yaxshi anglamay turib, faol fuqarolik pozitsiyasini bildirish qiyin. Bu ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun eng avval yoshlarning huquqiy savodxonligini yuksaltirish asosiy masalalaridan biri sanaladi.

Bu borada davlatimiz tomonidan ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni hamda 2019-yil 13-dekabrda "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamiyatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4551 son qarori, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 2022-yil yanvar yil 28 yanvardagi PF-60 sonli farmonida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish borasidagi ko'plab vazifalarni belgilab berdi <sup>1</sup>.

Yoshlar huquqiy ongini yuksaltirish mamlakatimizning kelajagini belgilaydi. Mamlakatimizning ertangi kuni, jamiyatda o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, bunyodkorlik g'oyalarini hayotga tatbiq etuvchi muhim kuch, ma'naviy salohiyatli resurs hisoblangan yoshlarni ma'naviy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jamiyatda munosib o'rin egallashlariga qulay shart-sharoit yaratish orqali ularni yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta kuchga aylanishiga ko'maklashish IIV akademik litsey huquqshunoslik fani o'qituvchilarining muhim



vazifalarimizdan sanaladi. Mamlakatimizda yoshlarni milliy anʼana va qadriyatlarimizga hurmat, insonparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, maʼnaviy salohiyatli va jismonan sogʻlom avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida ishlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirishni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasining —Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi, Qonuni “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida”gi Farmoni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yoʻlida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularni intellektual va ijodiy salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratildi.

Oʻzbekiston Respublikasi oʻz Mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab yosh avlodning barkamolligi, mustaqil fikrli va masʼuliyatli boʻlishi hamda milliy istiqlolni qadrlash, milliy qadriyatlarga chuqur hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jismonan va maʼnan sogʻlom boʻlishi uchun bir qator tizimli ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, ularning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarining himoyasini taʼminlash maqsadida huquqiy asoslar ham yaratildi.

Yoshlar qatlami deganda, dunyoning turli mamlakatlarida turli yoshdagi fuqarolar tushuniladi. Masalan, AQSh va Yaponiyada 13–14 yoshdan 29-30 yoshgacha boʻlgan shaxslar yoshlar hisoblansa, Bolgariyada 15 yoshdan 29 yoshgacha, Rossiyada 15 yoshdan 30 yoshgacha boʻlgan shaxslar yoshlar toifasiga kiradi. Germaniyada “kichik yoshdagi yoshlar” 14-18 yosh hamda “katta yoshdagi yoshlar” 18-27 yoshga boʻlinadi <sup>2</sup>.

Oʻzbekiston Respublikasida esa 14 yoshga toʻlgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar toifasini tashkil etishi Oʻzbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida”gi Qonunining 3-moddasida belgilab qoʻyilgan. Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, 2016-yilning 14-sentabrida qabul qilingan ushbu qonun yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlarini belgilab berdi (5-modda).





Bu yo'nalishlar ichida yoshlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash; ularning huquqiy ongi va madaniyati darajasini yuksaltirish kabilar ham mavjud. Yoshlarning haq-huquqlari ta'minlanishi uchun nafaqat davlat organlarining kafolati, balki yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasi ham katta ahamiyatga ega. Yuridik fanlari nomzodi, dotsent N. Saburov fikricha, "huquqiy ong – bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, his-tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisidir" <sup>3</sup>.

Huquqiy madaniyat uchun huquqiy ong zaruriy element ekanligini hisobga olgan holda shuni e'tirof etish kerakki, huquqiy ong bo'lishi uchun avvalo huquqiy savodxonlik juda zarurdir. Huquqiy savodxonlik fazilati shaxs – jamiyat –davlat munosabatlariga muhim ta'sir ko'rsatadi, hayotda mehnat faoliyatida yoki boshqa bir sohada yuzaga keladigan muammolarni adolatli va xolis hal qilish imkonini beradi.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy savodxonlik tushunchasiga yakdil ta'rif berilmagan bo'lsa-da, ulardan quyidagicha tushuncha hosil qilish mumkin: huquqiy savodxonlik – bu yuridik matnlardagi atamalarni tushunish, ulardan umumiy xulosalar chiqarish va bu bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobilayatidir. Xorijiy yuridik adabiyotlar ham shunga yaqin mazmunni ifodalaydi, ya'ni shaxsning o'z huquq va majburiyatlarini tanishi, qaysi holatlar yuridik nizo ekanligini bilishi va ularga qonuniy yechim topa olishi, huquqiy axborotni qayerdan topishni, yuridik yordamni qayerdan va qanday qilib olishni, qonunchilik tizimida qaysi choralar borligini hamda protsessual tartibni bilishi huquqiy savodxonlik belgilari hisoblanadi <sup>4</sup>.

Yoshlar orasida huquqiy savodxonlikning pastligi nafaqat, ularning o'zlari uchun, balki jamiyat va davlat uchun ham zararlidir. Huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi yoshlarning o'z huquqlaridan to'laqonli foydalana olmasliklariga, majburiyatlaridan bexabar qolishlariga sabab bo'ladi. Majburiyatlardan bexabarlik yoki harakatlarining huquqiy oqibatini anglamaslik bugungi kunda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Biz huquqiy-demokratik



davlat qurishni oldimizga maqsad qilgan ekanmiz, buning uchun huquqiy ongi va madaniyati yuksak yoshlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunga esa huquqiy savodxonlikni oshiribgina erishishimiz mumkin. Qisqasini aytganda, "Faqat chuqur o'ylangan va tezkor davlat siyosatigina yoshlarning huquqiy madaniyatini ko'tara oladi va ularning huquqiy ongi darajasini yuksaltirishga yordam beradi" <sup>5</sup>.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish yo'lida Mustaqillik davrida qator tadrijiy islohotlar amalga oshirildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bular sirasiga "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirish kompleks dasturi to'g'risida"gi Qarori kabilarni kiritish joiz <sup>6</sup>. Bu qonun hujjatlarining ijrosi sifatida qator amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan, Adliya vazirligi huzurida 2009-yilda tashkil etilgan yosh huquqshunoslardan iborat "Huquqiy targ'ibot guruhi" faoliyati e'tirofga loyiq. Ma'lumot o'rnida keltirish joizki, shu paytgacha bu targ'ibot guruhi respublikamizning 70dan ortiq tumanlariga borib, 62 mingdan ortiq yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazd i, ularning huquqiy savodxonligini oshirishga katta hissa qo'shdi. Shu bilan birga, har yili o'tkazib kelinayotgan "Siz qonunni bilasizmi?", "Huquq bilimdonlari" kabi ko'rik tanlovlar, fan olimpiadalari ham yoshlarning huquqiy savodxonlikni oshirishga bo'lgan qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Yangi qabul qilinayotgan qonunlarning yoshlar hayotiga ta'siri katta, albatta. Ularning bu qonunlar haqida axborot olishlari, undagi normalarga tushuntirishlar talab qilish huquqi ham qonunan mustahkamlangan. Bu borada olib borilayotgan islohotlarning yanada samarali bo'lishi ko'p jihatdan chuqur o'ylanganligi va tizimlilikiga bog'liqdir.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlardagi yuqori huquqiy savodxonlik demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu qatorda, bugungi islohotlarning mohiyatini tushunishda, ularni amalga oshirishda yoshlarning yanada faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu darajaga esa tizimli va doimiy huquqiy tarbiya orqali erishish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

- [1] <http://uza.uz/uz/society/yoshlarga-oid-davlat-siyosatining-huquqiy-asosi-21-09-2016>
- [2] O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni// "Xalq so'zi": 15.09.2016dagi №182 (6617)-son
- [3] Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYI, 2011. 74-bet.
- [4] Amirov Z. "Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida" // Jamiyat va boshqaruv –2015. №3
- [5]<http://www.srdlawnotes.com/2016/03/legal-literary-and-objects-of-legal.html>
- [6] [http://e-notabene.ru/pp/article\\_11130.html](http://e-notabene.ru/pp/article_11130.html)